

GIDROMETEOROLOGIK XAVFLI HODISALAR BILAN BOG'LIQ FAVQULOTDA VAZIYATLAR HAMDA ULARDA XAVFSIZLIK QOIDALARIGA RIOYA ETISH

*Buxoro pedagogika kolleji.
Ondayev Sherzod Hakimovich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, gidrometeorologik xavfli hodisalar bilan bog'liq favqulotda vaziyatlar hamda ularda xavfsizlik qoidalariga rioya etish chora tadbirlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: gidrometeorologiya, xavfli hodisalar, favqulotda vaziyatlar, xavfsizlik choralari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются чрезвычайные ситуации, связанные с опасными гидрометеорологическими явлениями, и меры по соблюдению правил безопасности.

Ключевые слова: гидрометеорология, опасные явления, чрезвычайные ситуации, меры безопасности.

Annotation: In this article, emergency situations related to hydrometeorological dangerous events and measures to comply with safety rules are discussed.

Key words: hydrometeorology, dangerous events, emergencies, safety measures.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

AHOLINI VA HUDUDLARNI XAVFLI GIDROMETEOROLOGIK HODISALAR HAMDA GEOLOGIK JARAYONLAR BILAN BOG'LIQ FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISH CHORA- TADBIRLARI TO'G'RISIDA

So'nggi yillarda tabiiy ofatlarning oldini olish, prognozlash, monitoring qilish, tabiiy ofatlardan aholini va hududlarni muhofaza qilish, yetkazilgan zararlar miqdorini kamaytirish, xavfli hududlardagi fuqarolarning, iqtisodiyot va ijtimoiy soha obyektlarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, respublikamizning tog' va tog'oldi hududlarida ro'y berayotgan sel oqimlari, toshqinlar va ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning soni hamda ko'lami aholini va hududlarni bunday xavflardan muhofaza qilish choralari kuchaytirishni, shuningdek, davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining bu boradagi hamkorligini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-son [Farmoni](#) ijrosini ta‘minlash, shuningdek, aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida:

1. Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o‘tkazib yuborishni ta‘minlash, qor ko‘chishi va yer ko‘chkisi hodisalari xavfini kamaytirish bo‘yicha hukumat komissiyasining (keyingi o‘rinlarda — Toshqinga qarshi hukumat komissiyasi) tarkibi [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Quyidagilar Toshqinga qarshi hukumat komissiyasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishga tayyorgarlikni oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarning aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish hamda samarali hamkorligini ta‘minlash;

sel, suv toshqini, qor ko‘chkisi va yer ko‘chkisi xavfi mavjud bo‘lgan hududlarda joylashgan aholini vaqtincha ko‘chirish va keyinchalik (zarur hollarda) bosqichma-bosqich xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko‘chirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlar bilan bog‘liq yirik favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilish;

hududlarda hamda vazirliklar va idoralarda xavfli tabiiy hodisalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha ishlarning holatini tekshirish, shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha mansabdor shaxslarning hisobotlarini eshitish;

har yili 20-martga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi apparatiga aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda ularni bartaraf etish kuch va vositalarining tayyorgarligi to‘g‘risida hisobot berib borish.

2. Toshqinga qarshi hukumat komissiyasining ishini tashkiliy-texnik jihatdan ta‘minlash Favqulodda vaziyatlar vazirligiga yuklansin.

3. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda

vaziyatlardan muhofaza qilish ishlarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin:

ro'y berishi mumkin bo'lgan xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlarni barvaqt aniqlash;

Toshqinga qarshi hukumat komissiyasi hamda hududiy komissiyalarning faoliyatini tashkil etish;

aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tartibi.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bir oy muddatda tegishli hudud uchun aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqsin hamda Toshqinga qarshi hududiy komissiyalar tarkibini tasdiqlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga [3-ilovaga](#) muvofiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari [4-ilovaga](#) muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vaziri A.X. Qo'ldoshev hamda O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vaziri Sh.R. Xamrayev belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.V. Maxmudov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh., 2022-yil 18-noyabr, PQ-426-son

Ma'lumki, inson manfaati, uning qadr-qimmatini, salomatligi va xavfsizligini ta'minlash - kundalik [hayotimiz jabhalarida dolzarb](#), ustuvor va muhim o'rinni egallaydi. Insoniyatning rivojlanish tarixi tabiiy ofatlar va texnogen halokatlar bilan bog'liqdir. Turli xil favqulodda vaziyatlar odamlarning qurbon bo'lishi, ularning sog'ligi yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoitini izdan chiqarishiga olib keladi. Respublikamizda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlardan biz sel, suv toshqini, qor va yer ko'chkilari alohida e'tibor qaratamiz, chunki O'zbekiston hududining geografik o'rni [va iqlim sharoitlari sel](#), qor ko'chkilari, ko'chkilar va toshqin hodisalarining sodir bo'lishiga zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-sonli «Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda

vaziyatlarning tasnifi to'g'risida»gi Qaroriga 1998yil muvofiq tabiiy ofatlar geologik xavfli hodisalar, gidrometeorologik xavfli hodisalar hamda favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlarga bo'linadi. Gidrometeorologik xavfli hodisalarga: odamlar o'limiga, aholi punktlarini, ba'zi sanoat va qishloq xo'jaligi ob'ektlarini suv bosishiga, infratuzilmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan suv toshqinlari, suv to'planishi va sellar; aholi punktlaridagi, sanatoriy, dam olish uylaridagi, sog'lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, sayyohlar va sportchilarning jarohatlanishiga va o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqalar kiradi.

Tarixdan hammamizga ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotiga yetkazgan juda katta miqdordagi moddiy zarari hamda insonlarni o'limi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan, 1969 yil 5 maydagi Namangan viloyatining Norin, Qoradaryo va Sirdaryo daryolarining o'zanidan toshgani, 1991 yil 4 may kuni Angren shahar Jigariston qo'rg'onida sodir bo'lgan ko'chki oqibatda 56 nafar fuqaro halok bo'lgan. Bu vaziyat bo'yicha Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish Davlat xizmati mutaxassisi ogohlantirish ko'rsatmasi taqdim etilgan. Lekin, shahar rahbariyatining mazkur ko'rsatmaga beparvoligi va mas'uliyatsizligi oqibatida o'z vaqtida bajarilmay, aholi xavfsiz hududga ko'chirilmagan. Buning ustiga, ayni buloqlarning ko'zi ochilib, yer bo'shshagan bir paytda, ko'chki xavfini oldini olaman deb savodsizlarcha yondoshib, ko'chki faollashgan joyda buldozer ishlatgan. Oqibatida esa nimalarga olib kelgani hammamizga ayon. Aslida, favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasidagi asosiy e'tibor, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda ularning oqibatlarini tugatishga emas, balki favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ya'ni oldindan o'tkazilib ularning ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa, odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga qaratilishi lozim.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, suv bilan bog'liq barcha muammolarga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Har doimgi muammo suv yetishmovchiligi bo'lsa, ba'zi hududlarda suv toshqinlari insonlarga katta talofat beriladi. Suvni isrof qilmaslik esa yaxshi. Suv insonni yashashi uchun muhim omil hisoblansa, uning falokati uchun ham eng katta havfli omil hamdir. Turli xil favqulodda vaziyatlar odamlarning qurbon bo'lishi, ularning sog'ligi yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoitini izdan chiqarishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Akbarov, D.Nazaraliyev, T. Muxtorov. “Gidrometeorologiya asoslari” /Kashunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llama.-T. “Yangi asr” 2008 yil
2. A. Akbarov “Gidrologiya, gidrometriya va oqim hajmini rostdash” fanining “Iqlimshunoslik, meteorologiya” qismidan tajriba ishlarini bajarish uchun uslubiy qo‘llanma.-T.,TIMI [bosmaxonasi](#),2007 yil-30 b.
3. D.Nazaraliyev, “Gidrologiya, gidrometriya va o‘qim hajmini rostdash” fanining “Gidrologiya” qismidan tajriba ishlarini bajarish uchun uslubiy qo‘llanma.-T., [TIMI bosmaxonasi](#), 2005 yil
4. A.Q [Muxamedov](#), A.B Mamataliyev “Melioratsiya asoslari” fanidan ma’ruzalar to‘plami. TIMI-2006 y